INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

KELAJAK TARJIMONLARNI QABUL QILADIMI YOKI SUN'IY INTELLEKT TARJIMONLIK QILADIMI?

Tajiboyeva Lobar Behzod qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar asrida sun'iy intellekt tarjima sohasini ham chetlab o'tmadi. U ba'zi yo'nalishlarda "tilsiz yordamchi" bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, tarjimonlar uchun asosiy qurollaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada sun'iy intellektning tarjima sohasidagi o'rni, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda zamonaviy tarjimashunoslikdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, texnik tarjima jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining tutgan o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, interpretatsiya, texnik tarjima, realiya, frazema, MT (Machine Translation), badiiy tarjima, sinxron tarjima, tarjima turlari

KIRISH

Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanmaslikning deyarli imkoni qolmadi. Shu sababli, ko'pchilik sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tarjima dasturlari ommalashishi natijasida kelajakda tarjimonlik sohasi talabalari ishsizlikka duch kelishidan xavotirda. Bu fikrlarni ham inkor qilib bo'lmaydi, sababi hozirda AI ko'pchilik sohalarga kirib bordi va ma'lum miqdorda ish o'rinlari qisqartirildi. Shunga qaramay, amaliyotda tarjimonlik kasbi o'z mavqeyini yo'qotmadi, aksincha, ushbu soha ko'rsatkichlari global miqyosda jadal o'sib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — sun'iy intellektning matnlarni interpretatsiya qilishda (talqin qilishda) hamon xatoliklarga yo'l qo'yishidir. Boshqa tillardagi ilmiy-diniy kitoblarni tarjima qilish tarjimonlarning ishini oshiryapti. Shunday bo'lsa ham sun'iy intellektni keraksiz deb ayta olmaymiz, bu tarjimonning mahoratiga bog'liq bo'lib, AI bilan ko'plab yutuqlarga erishsa bo'ladi.

ASOSIY QISM

Yer yuzidagi ilk tarjima manbalari Qur'on va Bibliya diniy kitoblarining tarjimasi bo'lgan, tarjima sohasi II ming yillikning boshlarida Hurr xalqiga mansub dostonlarni xett tillariga tarjimalarida ko'zga tashlanadi [2]. O'sha vaqtlarda hech qanday texnologiyalar bo'lmasa ham diniy bilimlar aynan o'sha davr tarjimonlari qilgan tarjimalar sababli tarqalgan. Shuningdek, badiiy tarjimada inson omili muhim ahamiyatga ega. Sababi asarlarni tarjima qilishda nafaqat ma'noga balki, qahramonlar his qilayotgan tuyg'ularini, kechinmalarini ask etishga ham bog'liq. Bilamizki, sun'iy intellekt hissiyotlarni his qilish qobiliyatiga ega emas. Buni faqat romanlarda emas g'azal va ruboiy tarjimalarida ham ko'rish mumkin. Chunki Alisher Navoiy g'azallarini turkey (eski o'zbek tilida) yozgan, bu esa hatto professional tarjimonlar uchun ham qiyinlik qiladi. Masalan:

Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Bu g‘azalida Hazrati Navoiy tasvir va ifodalar ishlatgan, baytdan–baytga o‘tgani sari lirik qahramonning oshiqlik o‘ti balandlab borgan. 2-baytda **“mardum”** so‘zi **“qorachiq”** ma’nosida ishlatilib, shoir yorga ko‘zimning qorasida qorachiq kabi joy ol deb murojaat qiladi [7] Bularni kitobxonga yetkazishda tarjimon mahorati talab qilinadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi frazemalar ingliz tiliga (yoki aksincha) tarjima qilinganda, so‘zlar kontekstga qarab moslashtirilishi shart [1]. Masalan, **“break a leg”** iborasini sun’iy intellekt so‘zma-so‘z **“oyoqni sindirmoq”** deb tarjima qilishi mumkin, biroq malakali tarjimon buni o‘zbek tilidagi muqobili **“omad tilayman”** shaklida o‘giradi. Yoki **“I am a night owl”** jumlasi sun’iy intellect tomonidan **“Men tungi boyo‘g‘liman”** deb xato tarjima qilinadi; aslida bu yerda tunda uxlamaydigan insonlar boyo‘g‘liga o‘xshatilmoqda va o‘zbek tiliga **“men tungi odamman”** yoki **“tunda ishlashni yoqtiraman”** deb o‘girilishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Shunga o‘xshash holatlarda iboralarni ma’nosiga qarab moslashtirish tarjimaning asosiy talabidir. Xususan, ingliz tilidagi **“Keep off the grass”** ogohlantirishini so‘zma-so‘z **“maysani saqlang”** emas, balki **“maysani bosmang”** deb tarjima qilamiz. Bu kabi murakkabliklarni nafaqat ingliz, balki arab tili misolida ham ko‘rish mumkin. Arab tilida bitta so‘z ko‘p ma’no anglatishi (polisemiya) tarjimon zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Masalan, **'ayn'** (عين) so‘zi kontekstga qarab **ko‘z, buloq, josus yoki muhim shaxs** ma’nolarini berishi mumkin [3]. Bunda to‘g‘ri ma’noni topish uchun gapning umumiy mazmunini tushunish, ba’zan esa diniy yoki tarixiy kontekstni hisobga olgan holda izohli tarjimadan foydalanish talab etiladi. Xuddi shuningdek, ispan tilidagi **“tirar la toalla”** iborasi so‘zma-so‘z **“sochiqni uloqtirmoq”** bo‘lsa-da, asl ma’nosi **“taslim bo‘lmoq”** hisoblanadi [4]. Demak, tarjima jarayonida shunchaki so‘zlarni almashtirish emas, balki o‘sha xalqning urf-odati, madaniyati va realiyalaridan kelib chiqib, ma’noni qayta qurish lozim. **"Realiyalar”** — muayyan bir xalq, mamlakat yoki hududga xos bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardir. Masalan, o‘zbek madaniyatidagi **“adras”** yoki **“do‘ppi”** kabi tushunchalar ingliz tilida bevosita muqobiliga ega emas. Bunday so‘zlarni tarjima qilishda, odatda, tavsifiy izohlardan foydalaniladi. Sun’iy intellekt esa bunday milliy bo‘yoqdor so‘zlarning kontekstual ma’nosini va madaniy qiymatini to‘liq his qila olmasligi sababli, ularni to‘g‘ri o‘girish ehtimoli past. Bu esa sun’iy intellekt tarjimonlik kasbini butunlay egallay olmasligidan dalolat beradi. Shu o‘rinda, **Tarjimonlar mashina tarjimasi (MT), Google Translate yoki shu kabi ilovalardan foydalanmaydimi?** degan haqli savol tug‘iladi. Albatta, zamonaviy tarjima jarayonini texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, tarjima faqat badiiy matnlardan iborat emas; uning bir qancha turlari, aspektlari va usullari mavjud bo‘lib, fanda ularning har biri alohida tasniflanadi.”

Tarjima aspektlari:

1. Yozma; 2. Og‘zaki; 3. Mexanik.

Tarjima turlari:

1. Badiiy; 2.Sohaviy. 3.Interpretatsion yoki og‘zaki tarjima 4. Mashina tarjimasi

Tarjima usullari:

Badiiy va sohaviy tarjimada:

1. Adekvat; 2. Ekvivalent; 3.Erkin. 4.So‘zma-so‘z. 5.Tavsir yoki ma’nolar tarjimasi.

Interpretatsion yoki og‘zaki tarjimada:

1. Sinxron; 2. Ketma-ket. 3. Oldindan tarjima qilingan matnni ovoz chiqarib o‘qib tarjima qilib berish. [6]

Biz eng ko‘p duch keladigan tarjimalardan biri bu mexanik tarjimadir. Zamonaviy dunyoda kompyuter texnologiyalarni bilmaydigan tarjimon ish topishi qiyin. Ko‘pchilik tarjima uyushmalari tarjimalarni elektron pochta orqali jo‘natadi va qulay elektron formatda qabul qiladi, bunda albatta texnologiya zarur qurol, ba’zi tarjima dasturlari matnni skayner qilib tarjimaga kirishib ketadi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki, aytganimizdek badiiy tarjimada bu kabi dasturlardan foydalanish oqilona qaror emas, sababi shu kabi matnlarda juda ko‘p xatoliklar kuzatilgan. Tarjimon bunday holatda elektron lug‘atlardan foydalanish bilan cheklanishi maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ba’zi tarjima matni egalari tarjima qilinishi kerak bo‘lgan asar yoki g‘azallarni qisqa vaqtda tarjima qilishni tarjimondan talab qiladi, bunday paytda tarjimon texnikadan foydalinishi mumkin, ammo tarjima tayyor bo‘lgandan keyin uni qaytdan tahlillashga va ko‘rib chiqishi shart. Chunki badiiy tarjima ijodkorlik degani [2]. Shuningdek, og‘zaki tarjimaning eng murakkab turi bo‘lgan sinxron tarjima tarjimondan ulkan mas’uliyat talab qiladi. Malakali sinxron tarjimon bo‘lib yetishish uchun yillar davomida tinimsiz mehnat qilish lozim. Sinxron tarjima, odatda, xalqaro anjumanlar, rasmiy uchrashuvlar va davlat miqyosidagi tadbirlarda bevosita (jonli) amalga oshiriladi. Bunday jarayonlarda yo‘l qo‘yilgan bitta kichik xato ham jiddiy siyosiy yoki ijtimoiy tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, bunday o‘ta mas’uliyatli va nozik vazifani mukammal bajarishda sun’iy intellektning imkoniyatlari hali ham yetarli emas. Statistik ma’lumotlarga nazar tashlasak:

Tarjima sanoati statistikasi

Global til xizmatlari bozori 2022-yilda 60.68 milliard dollar bo‘lgan va 2032-yilga kelib 96.21 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Yevropa bozorda 49% ulush bilan yetakchi, undan keyin Shimoliy Amerika (39.41%). COVID-19 davrida tarjima xizmatlariga talab 40% ga oshgan. Mashina tarjimasi bozori 2027-yilgacha 3 milliard dollarga yetadi. [5]

Tarjimon va tarjimonlik statistikasi

Dunyoda taxminan 640 000 tarjimon bor. Tarjimonlarning 75% freelanser sifatida ishlaydi. 66% tarjimonlar ayollar. Ko‘pchilik tarjimonlar kamida bitta oliy ma’lumotga ega. [5]

Tarjima dasturlari statistikasi

Professional tarjimonlarning 88% kamida bitta CAT tool (kompyuter yordamidagi tarjima vositasi) ishlatadi. Tarjima dasturlari mahsuldorlikni kamida 30% ga oshiradi. Eng mashhur vositalar:

- SDL Trados
- Wordfast
- memoQ

Mashina tarjimasi statistikasi

Google Translate kuniga 500 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Yevropadagi til mutaxassislarining 70% mashina tarjimasidan foydalanadi. Mashina tarjimasi bozori tez sur'atlar bilan o'smoqda.

Tarjima xotirasi

Tarjima xotirasi xarajatlarni 20–30% ga kamaytiradi va vaqtni 50% gacha tejaydi. Tarjimonlar TM yordamida 10% dan 60% gacha samaradorlik oshganini bildiradi. [5]

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mashina tarjimasi ham sun'iy intellekt ham tarjimonlarning ish o'rinlarini kengayishiga va tarjima ishlarining oshishiga yordam beryabdi. Globalizatsiya sabab tarjima sanoati tez rivojlanmoqda. Har qanday yangilikning salbiy taraflari bo'lsa ham uning foydalari nisbatan ko'proq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning tarjima sohasidagi asosiy afzalliklari — ish unumdorligini oshirish, vaqt va mablag'ni tejash hamda katta hajmli matnlarni qisqa muddatda o'girish imkoniyatini taqdim etishidir. Og'zaki tarjimada, kundalik hayotda ishlatiladigan mahsulotlarni tarjima qilishda qo'l keladi. Biroq u va inson tarjimasi o'rtasida ancha farq sezilishi mumkin. Sun'iy intellekt tarjimalari hissiz bo'lib ularda ko'roq tarjimaga e'tibor qaratiladi. Tarjimonlar har bir so'zning mazmun-mohiyatini uning tarixi, davri va yozilish maqsadidan kelib chiqib aniqlaydi. Bu esa asarning kitobxonga yetib borishida emotsional ta'sirchanlikni ta'minlaydi. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, yaqin kelajakda malakali tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj kamaymaydi, aksincha, sifatli va kreativ tarjimaga bo'lgan talab yanada ortadi. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, tarjimonlik kasbi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, aksincha, insoniy intellekt va mashina imkoniyatlarining uyg'unligi sohada yangi sifat bosqichini boshlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Obloqulova, N.&Otayorova,U. (05.07.2025).Tarjimada sun'iy intellekt va insoniyat o'rtasidagi raqobat masalasi. International scientific and practical conference "The silk road and the Turkic World: Integration of language, literature, translation, and gastronomic tourism in cultural exchange", May 14-17, 2025
2. Sirojiddinov,Sh.S & Odilova,G.K.(2017). Tarjima mutaxassisligiga kirish. 5-68-69
3. Alhawary,Mohammad T. (2016) Arabic grammar in Context.
4. John Butt & Carmen Benjamin (1988) A New Reference Grammar Of Modern Spanish
5. 2025 Translation Industry Trends and Stats | Redokun Blog
6. G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish.T., 2008. 232 b.
7. Husniddin Eshonqulov, Azimjon Hamidov, (2022), Alisher Navoiy g'azaliyotida muallif tahriri: shakl va mazmun mukammallashuvi